

Psixokorreksiya jarayonida psixoanaliz

Munisa Fazliddinovna Roziqova
olimovlaziz82@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixokorreksiya jarayonida psixoanalizning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha olib borilgan izlanishlarning natijalari tahlil qilib beriladi.

Kalit so'zlar: psixoanalitik korreksiya, himoya mexanizmi, og'ir kechinmalar, og'riqli hissiyotlar, ichki kuchlar

Psychoanalysis in the process of psychocorrection

Munisa Fazliddinovna Roziqova
olimovlaziz82@gmail.com
Bukhara State University

Abstract: This article analyzes the results of research on the specifics of psychoanalysis in the process of psychocorrection

Keywords: psychoanalytic correction, defense mechanism, difficult experiences, painful feelings, inner strength

Psixoanalitik korreksiyada asosiy e'tibor mijozning xulq-atvori va emotsional olamidagi buzilishlarga sabab bo'luvchi *nizolar* tushunchasiga qaratiladi. Asosiy vazifa anglanmagan ehtiyojlarning qabul qilinmasligi bilan bog'liq nizoli vaziyatni mijozning ongi yetkazish. Aynan anglanmagan impulslar mavjudligi va nizoli vaziyatning o'zini anglash - ushbu nizolarni yechishning yo'li hisoblanadi.

Korreksiyaning asosiy yo'nalishi - og'ir kechinmalar va og'riqli hissiyotlarning anglanmagan sabablarini aniqlashga mijozga yordam berish. Bu jarayonda turli texnikalardan foydalaniladi va quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Birinchi guruh shaxs xulq-atvori asosida yotuvchi anglanmagan mayllarni aniqlashga qaratilgan.

Ikkinchi guruh insonga qiyinchiliklarni mustaqil yengib o'tishga yordam beruvchi *ichki kuchlarga* e'tibor qaratiladi.

Uchunchi guruh real olamni qanday idrok etishini mijozning ongiga yetkazishga harakat qiladi.

To'rtinchi guruh mijozning jamoadagi o'z hatti-harakat xarakterini o'zgartirish

yoki xulq-atvorini o'zgartirish maqsadida o'zining ichki resurslarini mobilizatsiya qilish uchun turtki berishga qaratilgan.

Psixozanaliz metodi katarsisga asoslanib, mijoz bilan uzoq suhbat qilish orqali kasalligining haqiqiy sababi uning ongiga yetkaziladi; u siqib chiqarilgan voqelikni anglab boshlaydi. Freyd tarificha katarsis ro'y beradi. Katarsis orqali bezovta qilayotgan vaziyat xususida uzoq vaqt qayta- qayta fikr yuritish orqali bunday holatni mantiqiy yakuniga yetkazish mumkin.

Psixozanalizda quyidagi asosiy bosqichlar ajratiladi:

1 - bosqich: og'riq manbasini topish. Ushbu bosqichda assotsiatsiya, shaxs xulqini kuzatish, yangilash so'z va yozuvni o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

2 - bosqich: manbani ochish. Inson gapiradi, o'zining kechinmalari va uning asosini aytib beradi. Bu og'riqli jarayon bo'lib, mijoz voqelikni qayta kechirayotgandek bo'ladi va qiynaladi, shu bilan birga negativ va agressiv munosabatlar yuzaga keladi. Mijoz barchasini aytib berib, asta- sekin tinchlana boshlaganda bosqich tugagan hisoblanadi.

3 - bosqich: og'riq manbasida yashiringan voqelikni qayta baholash. Bu jarayonda mijozda o'rnatilgan tizimni o'zgartirishga yordam beriladi.

4 - bosqich: yangi o'rnatilgan tizimni ijobiy tarzda emotsional baholash.

5 - bosqich: unutish, manbani tugatish.

Id, Ego va Superego o'rtasidagi nizo sababli xavotir yuzaga keladi.

Xavotirning quyidagi 3 ko'rinishi ajratiladi:

1. Real xavotir - tashqi olamdagi real xavfga nisbatan emotsional javob hisoblanadi.

2. Nevrotik xavotir - id va ego o'rtasidagi nizo sababli yuzaga keladi. Id tomonidan kelgan, qabul qilib bo'lmaydigan impulslarning anglanish xavfiga emotsional javob.

3. Moral xavotir - ego va superego o'rtasidagi nizo sababli yuzaga keladi. Moral xavotir id tomonidan kelgan nomuvofiq, axloqsiz xatti- harakatlarni ifodalashga harakat jarayonida paydo bo'ladi.

Z.Freyd yuqorida keltirilgan nizolardan himoyalash uchun psixologik himoya mexanizmlarini ajratadi. Psixologik himoya shaxs butunligiga tahdid soluvchi xavotirlanish va noqulaylik holatlari, ichki va tashqi ziddiyatlar bilan bog'liq salbiy, jarohatlovchi kechinmalarni bartaraf qilish yoki kamaytirishga yo'naltirilgan mexanizmlar tizimidir. Sub'ektiv tahdid shaxsning ichki mayllari qarama-qarshiligi yoki tashqi ta'sirlar nomuvofiqligi tufayli paydo bo'lishi kuzatiladi. Psixologik himoya shaxsning o'ziga bergan ob'ektiv bahosi barqarorligini, "Men" timsoli va olamning adekvat timsolini saqlashga qaratilgan. Psixologik himoya muammosini birinchi bo'lib Z. Freyd tadqiq etgan. U mazkur tushunchani jamiyat tomonidan o'rnatilgan taqiqlar yoki talablar va anglanmagan mayllar o'rtasidagi ziddiyatni hal etish shakli sifatida

talqin qiladi.¹ Muammoni hal etmaslik esa surunkali xarakter kasb etuvchi noxush oqibatlarga olib keladi, oqibatda inson salbiy kechinmalar manbasini bartaraf etish uchun vaziyatga faol ta'sir etish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun quyidagi psixologik himoya mexanizmlarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Siqib chiqarish - salbiy kechinma, xavotirni uyg'otuvchi ko'ngilsiz voqeani xotiradan o'chirishga bo'lgan anglanmagan harakat;

2. Ketish - o'ta qiyin vaziyatdan jismonan yoki fikran qochish;

3. Ajratish (izolyatsiya) - salbiy hissiy kechinmalar va ularning manbalarini ongdan chiqazish yoki "yakkalab" qo'yish;

4 Ratsionalizatsiya - inson o'z xohish va harakatlari, xulqini oqilona va mantiqiy asoslashi, ijtimoiy va shaxsiy nomuvofiq mayllarni uyg'otuvchi sabablarning asosini talqin qilishi;

5 Rad etish - salbiy voqelikning kelib chiqish manba va oqibatlarini bilgan holda uni qabul qilishni xohlamaslik orqali himoyalani;

6. Identifikatsiya (aynan o'xshatish) - boshqa odamlarning ustanovka va qarashlarini o'zlashtirish jarayoni. Inson ko'ziga kuchli ko'ringan odamga taqlid qiladi, unga o'xshagandan so'ng o'zining o'zligini kamroq his qiladi, bu esa xavotirning pasayishiga olib keladi.

7. Sublimatsiya - jamiyat tomonidan qabul qilingan turli me'yorlarga mos kelmaydigan ichki xohish va kuchni ijtimoiy ma'qullangan faoliyat shakllariga yo'naltirish;

8. Avvalgi xulq ko'rinishiga qaytish - salbiy voqelik ta'siriga tushgan holatda uning jarohatlovchi kechinmalaridan qochish uchun passiv holatga o'tish yoki faoliyat jadalligi darajasini pasaytirish orqali avvalgi xulq va fikriga qaytish;

Ushbu psixologik himoya mexanizmlarini qo'llash natijasida nomuvofiq xulq-atvor ko'rinishiga asos bo'luvchi ichki nizolarning salbiy ta'siridan himoyalani, shaxs xotirjamligiga erishish mumkin va bu o'z navbatida shaxs ichki nozolarini korreksiya qilish va psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat etadi.

Psixoanalitik konsepsiyalar negizida motivatsiya ortganlik ravishda inson mayllariga xosdir, degan g'oya yotadi. Ularning manbai sifatida maylni aks ettiruvchi qaysidir organdagi yoki uning qismidagi somatik jarayon tushuntiriladi.

Z.Freydning konsepsiyasida mayllar va instinktlar tushunchalari o'rtasida hech qanday tafovut yo'qdir. Ongsizlik ta'limotining asoschisi Z.Freyd xulq motivlari va ehtiyojlari muammosini ishlab chiqayotir, motivatsiyaning manbai instinkt, u tur va individ-ning sakdanish shartidir, deb taqdirlaydi. Mazkur holatni muallif individning energetik potentsiya sifatida talqin etadi. Eng asosiy masala shuki, Z.Freyd motivatsiya regulyatori va motivatsiya energiyasining irsiy manbai sifatida «u» tushunchasiga qanday ma'no yuklamoqchi? Uningcha, «u» tushunchasining mazmuni tug'ma va

o'zgarasdir. Xuddi shu bois mantiq qonunlari va aql darajalari, ko'rsat-kichlari unga hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Z.Freyd affektiv, impulsiv shakldagi mutlakdashgan qo'zg'ovchilarni nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Ushbu qo'zg'atuvchilar (turtkilar)ning impulsivlik, taxminiylikning affektiv mohiyati, notanqidiylik, ongli va irodaviy nazoratga itoat etishda qiyinchilik kabilarning dinamik xususiyatlarini mutlaklashtirish bo'lib, ularning asosida quyi genetik va strukturaviy darajadagi qo'zg'atuvchilar yotadi. Z.Freyd ta'kidlab o'tgan dinamik xususiyatlar va xossalari mohiyatida motivatsiyaning chuqur asosiy manbasini ko'radi.

Foydlanilgan adabiyotlar

1. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009
2. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447
3. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-164.
4. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.
5. Elov, Z. S. (2022). O 'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. Science and Education, 3(3), 442-447.
6. EZ Sattarovich. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 (3) 2017
7. Furqatovich, U. F., & Sattarovich, E. Z. (2022). SUICIDE–AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 349-354.
8. Jo'Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o'tkazishning o'ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.
9. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон
10. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. АВЕЗОВ О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
11. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.

12. Olimov L.Ya. Xulqi o'g'ishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, "Durdona". 2019. – 460.

13. Olimov, L. (2020). ЛЯ психологической защита: ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

14. Olimov, L. (2021). maqola СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ: СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7)..

15. Qizi, S. M. Z., & Sattorovich, E. Z. (2022). PRIORITIES OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 900-904.

16. UFF Elov Ziyoddullo Sattorovich. SUICIDE – AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL 1 (Volume 3 ...

17. Yarashovich, O. L. (2020). O'smirlarning ba'zi dinamik xususiyatlari kontekstida kurashish xatti-harakatlarini o'rganish xususiyatlari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

18. ZM Maxmudova, AZJKYK Olimov, L Ya. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021

19. кизи Расулова, М. Б., & Олимов, Л. Я. (2022). ЎСМИР ШАХСИ РИВОЖЛАНИШИДА АҲЛОҚИЙ НОРМАЛАР МУАММОСИНИНГ ҲОЗИРГИ ЗАМОН ПСИХОЛОГИЯСИДА ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(3), 204-207.

20. Махмудова З.М., Олимов, Л. Я. (2021). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР ВА СТРАТЕГИЯЛАР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

21. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.

22. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

23. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. *Psixologiya ilmiy jurnali*. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
24. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. *XXI аср психологияси* 1 (1), Ўзбекистон
25. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. *Psixologiya ilmiy jurnali*. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
26. Олимов Л.Я., Эшов Э.С. Авезов О.Р. Девиант хулқ-атвор психологияси. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -В. 420.
27. Олимов, Л. Я. (2020). Olimov ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
28. Элов, З. С. (2014). Теоретические основы суицидального поведения. *Psixologiya*, 4, 16.
29. Элов, З. С. (2015). Суицидал уринишларни содир этишга сабаб бўлувчи асосий омиллар (Ички ишлар органлари ходимлари мисолида). *Psixologiya*, 2, 18.
30. Элов, З. С. (2016). Суицидал хулқ шаклланиши ижтимоий-психологик муаммо сифатида (ички ишлар идоралари ходимлари мисолида). *Psixologiya*, 3, 23.
31. Элов, З. С. (2017). Профилактика самоубийств сотрудников оvd. Вестник интегративной психологии, 208-212.
32. Элов, З. С. (2021). Замонавий жамиятда суицид (ўз жонига қасд қилиш) муаммолари. *Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2, 26-28.
33. Maxmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. (2021). Social psychological characteristics of psychological defenses manifested in adolescents in extreme situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов, (22), 233-237.
34. Maxmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. Osmirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021.
35. Олимов, Л. Я., & Махмудова, З. М. (2021). Психодиагностикани автоматлаштириш ва фанни ўқитишда инновацион педагогик ва ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хослиги. Масофавий таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материали. Тошкент, 489-493.